ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

XUSAINOVA ZILOLA YULDASHEVNA

O‘ZBEK TILI BIRLIKLARINI TOKENLASH, STEMLASH, LEMMALASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA DASTURIY TA’MINOTI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO'K 811.512.133'32

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation of sciences of the doctor of philosophy (PhD) on philological sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

XUSAINOVA ZILOLA YULDASHEVNA

O'ZBEK TILI BIRLIKLARINI TOKENLASH, STEMLASH, LEMMALASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA DASTURIY TA'MINOTI

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Fil3688 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Elov Botir Boltayevich** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Xolmonova Zulxumor Turdiyevna** filologiya fanlari doktori, professor
	Abdurahmonova Nilufar Zaynobiddin qizi filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.19.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2024-yil "14" 06 soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44. (www.tsuull.uz). e-mail: monitoring@navoiy-uni.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (290-raqam bilan ro‘yxatga olingan) (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-12-44 (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "30" 05 kuni tarqatildi.

(2024-yil "30" 05 dagi 1- raqamli reestr bayonnomasi)

H.A. Dadaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, filol.f.d., professor

Q.U. Pardayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

S.E. Normamatov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon kompyuter lingvistikasi amaliyotida tabiiy tilga ishlov berish usullaridan keng foydalanilmoqda. Tabiiy tilga ishlov berish (Natural language prossecing – NLP) loyihalarida doimiy bajariladigan vazifalar mavjud. Ular fundamental xarakterga ega bo‘lganligi sababli keng ko‘lamda o‘rganilgan. Ushbu vazifalarni yaxshi tushunish NLPning turli ilovalarini yaratishga imkon beradi. Tilni modellashtirish, matnni tasniflash, axborot olish, ma'lumot izlash, suhbat agenti, matnni umumlashtirish, savol-javob tizimlari, mashina tarjimasi, tematik modellashtirish NLPning asosiy sohalaridir. Tabiiy tilni qayta ishlash – sun'iy intellekt sohasining mashinalarni inson tilini tushunish va qayta ishlashga qaratilgan yo‘nalishi. Tabiiy tilni qayta ishlash mashina uchun oson ish emas, chunki mashina matn bilan emas, raqamlar bilan ishlaydi.

Dunyo tilshunosligida XX asr oxirida avtomatik tarjima sifatini yaxshilash, tilni lingvistik modellashtirish, muayyan tillar doirasida so‘zlarni lemmalash nazariyasi, algoritmini yaratish kabi masalalar kun tartibiga qo‘yildi. Natijada axborot-qidiruv tizimida faol qo‘llanuvchi tokenizator, stemmer, lemmatizator singari ilovalar ishlab chiqildi. Binobarin, til korpuslarini yaratish, ularni lingvistik annotatsiyalash, matnni avtomatik qayta ishlaydigan dasturiy vositalar – morfoanalizator, stemmer, lemmatizator, parser, orfokorrektorlarni ishlab chiqish kompyuter lingvistikasining ilmiy-nazariy muammolariga aylandi.

O‘zbek kompyuter lingvistikasi sohasida til korpusi, nutq sintezatori, avtomatik tarjima, sun'iy intellekt, o‘zbek tilini tushunish va qayta ishlash borasida ilmiy izlanishlarga e'tibor qaratilmoqda. Lekin tabiiy tilga ishlov berishning dastlabki bosqichlarini amalga oshiruvchi vositalar: tokenizator, stemmer, lemmatizatorlarni ishlab chiqish masalasi ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganilmagan. Zero, "...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash"[1] hozirgi kunda o‘zbek kompyuter lingvistikasi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shunga ko‘ra, o‘zbek tiliga zamonaviy axborot texnologiyalari vositasida ishlov berilishiga erishish, buning uchun til korpuslari, elektron tarjimon, tezaurus, orfokorrektor, lingvistik analizatorlar kabi dastlabki avtomatik ishlov vositalari hamda ularning lingvistik ta'minotini yaratish singari masalalar muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida", 2019-yil 21- oktyabrdagi PF-5850-son "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida", 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada

[1] "O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son Prezident farmoni. https://lex.uz/docs/-4561730

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi Qonuni qabul qilinganligining o'ttiz yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi Qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida tabiiy tilga ishlov berish masalasi atroflicha o'rganilgan. Tabiiy tilga ishlov berishning umumiy masalalari qator tadqiqotlar obyekti bo'lgan[2]. Jumladan, J.J.Vebster, C.Kit, A.Rai, S.Borah, X.Song, A.Salchianiy, Y.Song, D.Dopson, D.Zhou va boshqalar[3] o'z tadqiqotlarida tokenlash muammolarini yoritganlar. Stemlash masalasi va uning yechimiga turli yondashuvlarni K.Savitha, Y.Liu, M.Haidar, K.Kreslins, S.Jonatan ishlaridan o'rganish mumkin[4]. Lemmalash muammosiga M.Avhavhudzani, D.MakKarti, A.Chakrabarti ishlarida yechimlar taklif qilingan[5].

O'zbek tiliga ishlov berish, xususan stemlash, morfologik tahlil va tahrir dasturiy vositalarining lingvistik modullari, o'zbek tili matn korpusining lingvistik xususiyatlarni tokenlash masalalari borasida Z.Xolmanova[6], B.Elov, Sh.Xamroyeva[7], M.Abjalova[8], N.Abduraxmonova, A.Ismailov[9], O.Abdullayeva[10], R.Alayev[11], I.Bakayev[12], M.Sharipov va O.Sobirov[13]larning ayrim qaydlari mavjud. O'zbek tilida so'zshakllari, ularning yasalishi va morfemalar[14] hamda o'zbek tiliga avtomatik ishlov berish masalasi[15] tadqiqi ham e'tiborga molik. Ammo o'zbek tili leksik birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalashning lingvistik asoslari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqish masalasi maxsus monografik tadqiqot sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2024 yillarga bajarilishi mo'ljallangan "Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o'zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish" mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o'zbek tili leksik birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalashning lingvistik asoslari va dasturiy ta'minotini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tokenlashning umumiy xususiyatlari va o'zbek tiliga xos tomonlarini aniqlash;

stemlash va lemmalashning nazariy asoslarini aniqlash;

agglyutinativ tillar uchun stemlash jarayoni muammolarini aniqlash;

o'zbek tili leksik birliklarini stemlash va lemmalashning lingvistik asoslarini ishlab chiqish;

o'zbek tili milliy korpusi qidiruv tizimini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish;

BPE algoritmi asosida tokenlash jarayonini amalga oshirish;

affikslarni ajratishga asoslangan uzb.stemming algoritmini ishlab chiqish;

[2] Vajjala S., Majumder B., Gupta A. Surana H. Practical Natural Language Processing. A Comprehensive Guide to Building Real-World NLP Systems. – USA, 2020. – 424 p.; Bölücü N., Can B. Unsupervised joint PoS tagging and stemming for agglutinative languages. ACM Transactions on Asian and Low-Resource Language Information Processing, New York, 2019, – №18. – P. 1-21.

[3] Webster J.J., Kit Ch. Tokenization as the initial phase in NLP. Hong Kong, 1992. – P. 1106-1110; Rai A., Borah S. Study of various methods for tokenization // In Lecture Notes in Networks and Systems. India, 2021, – № 137. – P. 193-199; Song X., Salcianu A., Song Y., Dopson D., Zhou D. Fast WordPiece Tokenization // Conference on Empirical Methods in Natural Language Processing, Proceedings. China, 2021. – P. 2089-2103.

[4] Savitha K. Study of stemming algorithms // UNLV Theses, Dissertations, Professional Papers and Capstones. – Las Vegas, 2010. – 48 p.; Liu Yi Yu. The advances of stemming algorithms in text analysis from 2013 to 2018 // MCom. Dissertation, University of Pretoria. – Pretoria, 2019. – 192 p.; Haidar M. "A comparison of root and stemming techniques for the retrieval of Arabic documents". Dissertation, McGill University. – Montreal, 2001. – 204 p; Kreslins K. "A stemming algorithm for Latvian". PhD Dissertation, Loughborough University. – Boston, 1996. – 264 p.; Jonathan S. Designing a stemming algorithm for Kambaata text: a rule based approach. st.mary's University. – Addis Ababa, Ethiopia, 2018. – 104 p.

[5] Avhavhudzani M.V. "The lemmatization of Tshivenda lexical items". Thesis, University of Limpopo. – Africa, 2012. – 105 p.; McCarthy D. Lexical acquisition at the syntax-semantics interface: Diathesis alternation, subcategorization frames and selectional preferences. Doctoral dissertation, University of Sussex. – Cambridge, 2001. – 189 p.; A. Chakrabarty. On Lemmatization and Morphological Tagging for Highly Inflected Indic Languages. Doctoral dissertation, Indian Statistical Institute. – India, 2018. – 116 p.

[6] Xolmonava Z.T. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent. 2020. – 198 b.

[7] Elov B.B., Xamroyeva Sh.M. The Problem of POS Tagging and Stemming for Agglutinative Languages // 8 th International Conference on Computer Science and Engineering UBMK 2023. Turkey, Burdur, 2023. – P. 57-62.

[8] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. (NLP) // Linguistic modules of the text editing and analysis program (NLP). – Monografiya. – Toshkent, 2020. – 165 b.

[9] Abdurakhmonova N., Ismailov A., Sayfullaeva R. Turkic language stemmer python package for Natural Language Processing // "Computer Linguistics challenges and sollutions" international scientific-practical conference. Tashkent, 2023. https://www.researchgate.net/publication/369503003

[10] Abdullayeva O. O'zbek tilining internet axborot matnlari korpusini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari. Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Andijon, 2022. – 120 b.

[11] Elov B., Alayev R. Affikslarni ajratishga asoslangan uzb-temming algoritmi / O'zbekiston Informatika va energetika mummolari jurnali. O'zbekiston Jurnali. 2023, – № 1. – P. 14-27.

[12] Bakaev I. Linguistic features tokenization of text corpora of the Uzbek language // Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies. Tashkent, 2021. – P. 98-105.

[13] Sharipov M., Sobirov O. Development of a Rule-Based Lemmatization Algorithm Through Finite State Machine for Uzbek Language // The International Conference and Workshop on Agglutinative Language Technologies as a challenge of Natural Language Processing. Koper, Slovenia, 2022. – P. 1-6.

[14] Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент, 1989. – Б. 10.; Миртожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – Тошкент, 2013.; Qo'ziboyeva G. Tilimizga kirib kelgan neologizmlar va ularning tahlili / International scientific journal. Toshkent, 2022, – № 3. – B. 78-83.

[15] Elov B., Hamroyeva Sh., Axmedova X. Methods for creating a morphological analyzer, 14th International Conference on Intellegent Human Computer Interaction. Tashkent, 2022. – P. 27-38.; Elov B., Hamroyeva Sh. Morfologik analizatorni yaratish usullari. / O'zbekiston: Til va Madaniyat (Amaliy filologiya). Toshkent, 2022, – № 5. – B. 40-64.

o‘zbek tili matnlari uchun uzb.tokenizator, uzb.stemming va uzb.lemmatizator dasturiy ta’minotini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini o‘zbek tili leksik birliklari tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili leksik birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalashning lingvistik asoslari va dasturiy ta’minoti tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tasniflash, tavsiflash, qiyoslash, modellashtirish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jahon va o‘zbek tilshunosligida leksik birliklarni tokenlash, stemlash va lemmalashning nazariy asoslari tizimlashtirilib, belgi va so‘zga asoslangan tokenlash, lingvistik qoidalar va korpus vostasidagi gibrid yondashuvli stemlash, lug‘atga asoslangan lemmalash usullari aniqlangan;

agglyutinativ tillar uchun stemlash jarayonidagi o‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi, so‘zning tovush o‘zgarishiga uchrashi, neologizm va NERlarni stemlash kabi muammolar aniqlanib, o‘zbek tilidagi turli tuzilishli leksik birliklarni stemlash va lemmalashning lingvistik asoslari ishlab chiqilgan;

o‘zbek tili milliy korpusi matnlarini qayta ishlash asosida qidiruv tizimini optimallashtirish usullari ishlab chiqilib, leksik birliklarni stemlash va lemmalash jarayoni ochib berilgan;

tokenlash jarayoni BPE algoritmi asosida amalga oshirilib, affikslarni ajratishga asoslangan stemlash, lug‘at va morfologik tahlilga tayanilgan lemmalash algoritmi ishlab chiqilib, o‘zbek tili matnlari uchun uzb.tokenizator, uzb.stemming va uzb.lemmatizator dasturiy ta’minoti yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan algortimlar o‘zbek tili morfologik analizatori samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

dissertatsiyada keltirilgan tokenlash, stemlash va lemmalash amallari o‘zbek tili milliy korpusi qidiruv tizimi natijasini optimallashtirgan;

o‘zbek tili matnlarini tokenlash, stemlash va lemmalash dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘rganilgan materiallarning o‘zbek, turk, uyg‘ur va ingliz tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilishga yordam berganligi, ularning asosli ekanligi, metodologik mukammalligi, o‘zbek, turk, uyg‘ur va ingliz tili chog‘ishtirma tadqiqotlarning amalda isbotlangan manbalarga tayanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, mazkur tadqiqot materiallari o‘zbek tili matnlarini qayta ishlash, til korpusini tuzish, mashina tarjimasi tizimlarini ishlab chiqishga oid nazariy ishlarni muayyan ilmiy qarash va faktlar bilan boyitadi. Shuningdek, o‘zbek kompyuter lingvistikasi bo‘yicha amalga oshiriladigan tadqiqot, monografiya, darslik va o‘quv qo‘llanmalarning mukammallashishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tabiiy tilni morfologik, sintaktik, semantik tahlil qilish vositalarini tuzishda tokenlash, stemlash va lemmalash jarayonini bajaruvchi https://uznatcorpara.uz/uz/POSTag dasturiy ta’minotining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash, lemmalashning lingvistik asoslari va dasturiy ta’minoti tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalashni amalga oshiruvchi dasturiy ta’minotdagi belgi va so‘zga asoslangan tokenlash, lingvistik qoidalar va korpus vositasidagi gibrid yondashuvli stemlash, lug‘atga asoslangan lemmalash haqidagi ilmiy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi davlat muassasasi markazida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 12-oktyabrdagi 123-son dalolatnomasi). Natijada, o‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalash dasturiy ta’minotining sinovdan o‘tkazilishi natijasida o‘zbek tili gaplarining morfologik tahlilidagi 32000 dan ortiq sodda, 7500 dan ortiq qo‘shma leksemadan iborat ma’lumotlar bazasi shakllantirilgan;

o‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash, lemmalash natijalaridan, xususan tabiiy tilga ishlov berishda o‘zbek, rus, ingliz tillarida stemlash va lemmalash sifatini oshirishga doir ilmiy natijalaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan I-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-oktyabrdagi 01/10-2182-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, tabiiy tilga ishlov berishda o‘zbek, rus, ingliz tillarida stemlash va lemmalash sifatini oshirish elektron platformada qidiruv sifatini yaxshilagan; o‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash, lemmalash natijalaridan o‘zbek tiliga xos birliklar qidiruv natijasi samaradorligi ta’minlangan;

o‘zbek tili birliklarini tokenlash, stemlash, lemmalashning natijasini asoslovchi algoritmlar va ular asosida yaratilgan dasturiy ta’minotidan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda bajarilgan PZ-2020042022 “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 19-oktyabrdagi 01/10-2183-raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, stemlash va lemmalash algoritmi asosida turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platformasi qidiruv tizimi ko‘rsatkichi oshishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 12 ta jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola nashr ettirilgan, ulardan 3 tasi xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqotning mavzusi va uning dolzarbligi asoslangan, tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, ilmiy ishning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birgalikda, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **"Tokenlash, stemlash va lemmalashning nazariy asoslari"** deb nomlanadi. Bobning birinchi paragrafi *"Jahon va o'zbek tilshunosligida tokenlash jarayonining umumiy tavsifi"* deb ataladi. Matnni tahlil qilish, odatda, aniq belgilangan bosqichlarga muvofiq amalga oshiriladi. Matnga boshlang'ich ishlov berishning dastlabki bosqichi uni **tokenlar**ga aylantirishdir. Tokenlar matnni tahlil qilish uchun mazmunli birliklar sifatida aniqlangan matn segmentlaridan iborat bo'ladi. D.Manning, P.Raghavan va H.Schutzelarning ilmiy tadqiqotlarida tokenlarni alohida so'zlardan katta yoki kichikroq bo'laklar (*so'z ketma-ketligi, so'zostilar, paragraflar, gaplar* yoki *satrlar*)dan iborat bo'lishi mumkinligi ta'kidlangan[16].

Tokenlash NLPda matnli ma'lumot bilan ishlashning asosiy va majburiy bosqichi bo'lib, ushbu vazifani bajaruvchi dasturiy vosita tokenizatordir. Tokenizator NLP vazifasiga qarab turli yondashuv asosida ishlab chiqilishi mumkin.

Turli tizimli tillarning tokenlash dasturiy vositalari tavsifi. Dunyoning turli tillari uchun ko'plab tokenlash usullari mavjud bo'lib, qoidaga asoslangan[17], statistik[18], oshkor bo'lmagan[19], leksik[20] usullar farqlanadi. Velbers va V.Atteveldt o'zining "Text Analysis in R" nomli maqolasida: "Tokenlash jarayoni matnni kichikroq bo'laklarga ajratish jarayoni hisoblanib, u ko'pincha tinish belgilarini olib tashlash va barcha belgilarni kichik harflarga aylantirish uchun matnni boshlang'ich qayta ishlashni o'z ichiga oladi", – deb ta'rif beradilar[21].

Tokenlash jarayonida qabul qilingan qarorlar matnni qayta ishlashning keyingi jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. M.Denni, A.Spirling[22] hamda D.Guzri[23] o'z

[16] Manning C.D., Raghavan P., Schütze H. Introduction to Information Retrieval. – Cambridge, 2008. – 544 p.
[17] Zhou L., Liu Q. A character-net based Chinese text segmentation method. 2002. https://aclanthology.org/W02-1117.pdf. (Saytga murojaat); Kaplan R.M. A Method for Tokenizing Text. Complexity and Education: Inquiries into Words, Constraints and Contexts. Cambridge, 2005. – P.55-64.
[18] Yang C.C., Li K.W. A heuristic method based on a statistical approach for Chinese text segmentation / Journal of the American Society for Information Science and Technology. America, 2005, – №56. – P. 1438-1447.
[19] Shahabi A.S., Kangaveri M.R. Intelligent processing system // IFIP International Federation of Information Processing Springer Boston. Pakistan, 2007. – P. 411-420.
[20] Wu D., Fung P. Improving Chinese tokenization with linguistic filters on statistical lexical acquisition // 4th Conference on Applied Natural Language Processing. Stuttgart, Germany, 1994. – P. 180-181; Labadié A., Prince V. Lexical and semantic methods in inner text topic segmentation: A comparison between C99 and transeg. // Conference: Proceedings of the 13th international conference on Natural Language and Information Systems: Applications of Natural Language to Information Systems. France, 2008. – P. 347-349.
[21] Welbers K., Van Atteveldt W., Benoit K. Text Analysis in R. Communication Methods and Measures. London, 2007, – №11. – P. 245-265.
[22] Denny M. J., Spirling A. Text Preprocessing for Unsupervised Learning: Why It Matters, When It Misleads, and What to Do about It / Political Analysis. Cambridge, 2018, – №26. – P. 168-189.
[23] Guthrie D., Allison B., Liu W., Guthrie L., Wilks Y. A closer look at skip-gram modelling // Proceedings of the 5th International Conference on Language Resources and Evaluation. Chicago, 2006. – P. 1222-1225.

tadqiqotlarida katta hajmdagi til korpuslari uchun tokenlashni amalga oshirish jarayonida murakkab amallar bajarilishini, tokenlashning tabiiy til xususiyatlariga bog'liqligini ta'kidlashgan. A.Mullen, K.Benoit[24] va R.Core Team[25] dasturchilar guruhi tomonidan **R tilida** ishlab chiqilgan tokenizatorlar to'plami orqali tabiiy tildagi matn uchun tez, izchil tokenlash amalga oshirilgan hamda GitHub[26] va Zenododa[27] arxivlangan.

D.Eddelbettel va J.Balamutalar tomonidan ishlab chiqilgan tokenizator tezligini oshirish uchun **n-gram** va **skip n-gram tokenizer** kabi asosiy komponentlar **Rcpp** dasturiy vositasi yordamida ishlab chiqilgan[28].

Bugungi kunda **o'zbek tili** leksik birliklarini tokenlash bo'yicha amaliy ishlar uchramaydi. M.Abjalova "Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari" nomli monografiyasida tokenlash, stemlash va lemmalash jarayonlariga ta'rif bergan[29].

I.Bakayev tomonidan o'zbek tili matn korpusini tokenlash amalga oshirilgan bo'lib, unda imlo xususiyatlarini hisobga olish lozimligi qayd etilgan[30]. So'zlarning turlari tahlil qilinib, *murakkab, juft, takroriy* va *qo'shma so'zlar* uchun so'z yasalishining matematik modeli taklif etilgan.

Tokenlashni keng ma'noda 3 turga – so'z, belgi va so'z tarkibi elementlari (n-gram belgilar)ga ajratish mumkin. Misol uchun, quyidagi gapni ko'rib chiqamiz: *"Hech qachon taslim bo'lmang"*. Tokenlarni shakllantirishning eng keng tarqalgan usuli bo'shliqqa (probel) asoslangan. Bo'sh joyni ajratuvchi sifatida qabul qilsak, gapning tokenlash natijasida 4 ta token hosil qilinadi – *Hech-qachon-taslim-bo'lmang*. Har bir token so'zdan iborat bo'lgani uchun u **word(so'z)ni tokenlash** deyiladi. Xuddi shunday, tokenlar sifatida belgilar va so'z tarkibi elementlari hosil qilinishi mumkin. Misol uchun, *"aqlliroq"* so'zini ko'rib chiqamiz:

belgilar tokeni: *a-q-l-l-i-r-o-q;*

so'z tarkibi elementlari tokeni: *aql-li-roq.*

Tokenlar tabiiy tilning qurilish bloklari bo'lganligi sababli strukturlanmagan matnni qayta ishlashning eng keng tarqalgan usuli token darajasida sodir bo'ladi.

Birinchi bobning ikkinchi paragrafi *"Stemlash jarayonining umumiy tavsifi"* deb nomlanadi. Stemlash NLPda matnga ishlov berishning dastlabki bosqichi bo'lib, mazkur jarayon NLPning ko'plab vazifalarida amalga oshirilishi talab etiladigan amaldir. Stemlash jarayonining asosiy maqsadi – so'zning flektiv shakllarini o'zak shakliga olib kelish. NLPning ushbu amali axborot qidiruv tizimlari (Information Retrieval systems, IRS)ning aksariyatida juda ahamiyatli. Stemming jarayoni

[24] Mullen A., Benoit L., Keyes K., Selivanov D., Arnold J. Fast. Consistent Tokenization of Natural Language Text / Journal of Open Source Software. America, 2018, – №3. – P.1-3.
[25] Team R.C. R: A Language and Environment for Statistical Computing / R Foundation for Statistical Computing. Vienna, 2021. https://www.R-project.org (Saytga murojaat).
[26] https://github.com/ropensci/tokenizers
[27] https://zenodo.org/record/1205017
[28] Eddelbuettel D. Seamless R and C++ integration with Rcpp. — USA, 2013. – 220 p.; Eddelbuettel D., Balamuta J.J. Extending R with C++: A Brief Introduction to Rcpp / The American Statistician, Taylor and Francis Journals. France, 2018, – № 72. – P. 28-36.
[29] Abjalova M. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. (NLP). // Linguistic modules of the text editing and analysis program (NLP). – Monografiya. – Toshkent, 2020. – 165 b.
[30] Bakaev I. Linguistic features tokenization of text corpora of the Uzbek language // Bulletin of TUIT: Management and Communication Technologies, Tashkent, 2021. – P. 98-105.

so‘zshakllardagi barcha qo‘shimchalarni kesib tashlash orqali amalga oshadi. Buning natijasi esa imlo tekshiruvi kabi NLP ilovalari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Stemlash jarayoni so‘zlarning yasalishi bilan bog‘liq: u *o‘zak* va *yasalmaning* o‘zgarishiga asoslanadi. Buning natijasida so‘zshakllar konflyatsiya[31]ga olib kelinadi. So‘zshakllarida prefiks va suffikslar ishtirok etishi mumkin.

1980-yilda M.Porter qo‘shimchalarni ajratish qoidalariga asoslangan stemmer algoritmini taklif qildi. Algoritm besh bosqich va 10000 so‘zli lug‘atdan iborat stemmer matn/korpus hajmini **33%**ga qisqartirishini aniqladi.

1990-yilda Lankaster universitetida Kris Peys grammatik qoidalar asosida qo‘shimchalarni iterativ ravishda olib tashlaydigan yangi stemmerni ishlab chiqdi. Mazkur stemmer algoritmi qoidalar istisnolari yuzaga kelmasligi uchun qo‘shimchalarni almashtirishga qaratilgan. Bu stemmer odatda Peys/Hask stemmer yoki Lankaster stemmer deb ataladi.

Stemlash algoritmlarining tasnifi. Hozirgi kunda NLP tadqiqotchilari tomonidan juda ko‘plab stemlash algoritmlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ishning mazkur qismida keng miqyosda foydalanilayotgan algoritmlar xususida bahs yuritiladi. http://devopedia.org saytida zamonaviy stemmerlar quyidagicha tasniflangan:



1-rasm. http://devopedia.org ma’lumotlariga ko‘ra stemming algoritmlari tasnifi

Qo‘shimchalarni olib tashlash usullari. Mazkur usul so‘zdagi prefiks yoki affikslarni olib tashlash (**truncating**)ga asoslanadi. Bu turdagi eng oddiy stemmer **Tuncate**(n) stemmeri bo‘lib, u so‘zni **n**-belgisigacha qisqartiradi, ya’ni so‘zning birinchi **n** ta harfini saqlagan holda, qolganlarini olib tashlaydi[32]. Bu usulda uzunligi **n** dan qisqa so‘zlar o‘z shaklida saqlanadi. So‘z uzunligi kichik bo‘lgan holda ortiqcha amallar soni ortadi. Affiksni olib tashlashga asoslangan yana bir yondashuv – **S-stemmer** algoritmi ingliz tilidagi otlarning birlik va ko‘plik shakllarini birlashtiradi. Bu algoritm D.Xarman tomonidan taklif qilingan[33]. S-stemmer

[31] Konflatsiya (conflation) – so‘zshakllarining umumiy o‘zagini aniqlash.

[32] Frakes W.B., Fox C.J. Strength and similarity of affix removal stemming algorithms / ACM SIGIR Forum. Virginia, 2003, – №37. – P. 26-30.; Sirsat S.R., Chavan V., Mahalle H. S. Strength and Accuracy Analysis of Affix Removal Stemming Algorithms / International Journal of Computer Science and Information Technologies. Indonesia, 2013, – №4. – P. 265-269.

[33] Harman D. How effective is suffixing? / Journal of the American Society for Information Science. America, 1991, – №42. – P. 7-15.

algoritmida ko‘plikdagi qo‘shimchalarni birlik shaklga aylantirish qoidalari ishlab chiqilgan.

O‘zbek tilida stemlash masalasiga oid ba’zi tadqiqotlar amalga oshirilgan, jumladan, N.Abduraxmonova, R.Sayfullayeva va A.Ismailovlar o‘zbek tili so‘zlari uchun stemlash dasturiy vositasini ishlab chiqish masalasini o‘rganishgan va axborotni qidirish jarayonida o‘zakni aniqlash muhim ahamiyat kasb etishini qayd etishgan[34]. Tabiiy tilni qayta ishlashda matnli ma’lumotlar to‘plamini qayta ishlashning boshlang‘ich bosqichi odatda ko‘p vaqt va resurs talab qiladi. N.Abduraxmonova va boshqalar o‘z tadqiqotida strukturalanmagan matnni qayta ishlashning birinchi usullaridan biri stemlash jarayoni ekanligini ta’kidlashgan[35]. Ularning qayd etishicha, stemlash odatda ma’lumot olish va mashinali o‘rganishda qo‘llaniladi. N.Abduraxmonova va A.Ismailov tomonidan TLstemmer nomli python stemmer paketi ishlab chiqilgan bo‘lib, u turkiy tillar guruhiga mansub matndagi stemlarni aniqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshqa tabiiy tillar uchun ishlab chiqilgan stemlash algortimlarini o‘zbek tili leksik birliklariga bevosita qo‘llab bo‘lmaydi. O‘zbek tilining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda UzbStemming algoritmini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bobning uchinchi paragrafi “*Lemmalash jarayoni: umumiy tavsif va tahlil*” deb nomlangan. **Lemmalash** – so‘zshakl yoki stemdan lemma (leksema)ning ma’noli shaklini aniqlash va bu birliklarni tabiiy tilda qayta ishlash usuli. Lemmalash ko‘plab NLP vazifalari uchun muhim qadam hisoblanadi. Lemmalash – so‘zning lug‘aviy jihatdan normallashgan shaklini topish jarayoni. Lemmalash atroflicha o‘rganilgan jarayon sanaladi. Jumladan, A.Bjo‘rkeland, D.Seddah va A.Fraserlar matnlarni sintaktik tahlil qilish va mashina tarjimasida lemmalashdan foydalanish masalasini tadqiq qilishgan[36]. Lemmani aniqlash so‘zni lug‘aviy manbalarga solishtirish va flektiv shakllari o‘rtasidagi munosabatni o‘rnatish uchun talab qilinadi. Ayniqsa, morfologik jihatdan boy tillar uchun lemmalash nihoyatda ahamiyatli. G.Chrupala tabiiy tilga bog‘liq bo‘lmagan, tokenlarga asoslangan lemmalash usulini taklif etgan, ammo ushbu usulning samadorligi pastligi tufayli amaliyotda mazkur algoritmdan juda kam foydalanilmoqda[37].

[34] Abdurakhmonova N., Ismailov A., Sayfullaeva R. Turkic language stemmer python package for Natural Language Processing // “Computer Linguistics challenges and sollutions” international scientific-practical conference. Tashkent, 2023. https://www.researchgate.net/publication/369503003. (Saytga murojaat).

[35] Abdurakhmonova N., Babajanov U., Ismailov A., Baysariyeva S. TLstemmer (Turkic language stemmer) python package for Natural Language Processing // Conference: International Conference on Information Science and Communications Technologies. Tashkent, 2022. https://www.researchgate.net/publication/349467555. (Saytga murojaat).

[36] Björkelund A., Bohnet B., Hafdell L., Nugues P. A high-performance syntactic and semantic dependency parser // 23rd International Conference on Computational Linguistics, Proceedings of the Conference. China, 2010, – №2. – P. 33-36.; Seddah D., Chrupała G., Çetinoğlu Ö., Van Genabith J., Candito M. Lemmatization and Lexicalized Statistical Parsing of Morphologically Rich Languages: the case of French // 1st Workshop on Statistical Parsing of Morphologically-Rich Languages. Los Angeles, 2010. – P. 85-93.; Fraser A., Weller M., Cahill A., Cap F. Modeling inflection and word-formation in SMT // Proceedings of the 13th Conference of the European Chapter of the Association for Computational Linguistics. France, 2012. – P. 664–674.

[37] Chrupała G. Simple data-driven context-sensitive lemmatization // Procesamiento Del Lenguaje Natural. Ireland, 2006, – №37 – P. 121-127

O‘zbek tilidagi leksik birliklarni lemmalash algoritmlari bo‘yicha bir necha tadqiqotlar olib borilgan hamda kichik matnlarda sinovdan o‘tkazilgan. Xususan, I.Bakayev[38] *o‘zbek tili so‘zlariga lingvistik qoidalarga asoslangan yondashuv asosida stemlash algoritmini ishlab chiqish* masalalarini o‘rgangan. M.Sharipov, O.Sobirovlar **o‘zbek tili** uchun chekli holatlar mashinasi **(Finite State Machine)** orqali qoidaga asoslangan lemmalash algoritmini yaratgan[39]. Affikslarni olib tashlashda ularning ma’lumotlar bazasi va POS teglash qo‘llanilgan. Mashinali o‘rganish va neyron tarmog‘iga asoslangan lemmalashni turli tillarda qo‘llash bo‘yicha tadqiqotlar natijasi yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, amalda ular o‘zbek tiliga qo‘llanilmagan.

Dissertatsiyaning II bobi **“O‘zbek tili leksik birliklarini stemlash va lemmalashning lingvistik asoslari”** deb nomlangan bo‘lib, birinchi paragraf *“O‘zbek tili so‘zshakllarini stemlash: muammo va yechimlar”* deb ataladi. O‘zbek tilida so‘zning eng kichik ma’noli qismidan biri o‘zak **(root)** bo‘lsa, so‘zshaklning eng katta ma’noli qismi **stem**dir. Shuning uchun NLPda so‘z ikki qismdan iborat deb hisoblanadi: **ma’noni anglatuvchi stem** va **qo‘shimchalar**.

Morfologik tahlil sohasida hozirgacha bajarilgan ishlarni ikki sinfga ajratish mumkin: **stemga** va **affikslarni olib tashlashga asoslangan** yondashuv. *Stemga asoslangan morfologik tahlil*ni amalga oshirish uchun dastlab so‘zning stemi, so‘ngra affikslari aniqlanadi. *Affikslarni olib tashlashga asoslangan yondashuv*da dastlab so‘zdagi affikslar aniqlanadi.

O‘zbek tilidagi so‘zlarning stemini aniqlash uchun o‘zak va unga birikadigan barcha turdagi qo‘shimchalar aniqlanadi. An’anaviy stemlash algoritmlari qo‘shimchalar va morfologik qoidalarga asoslangan bo‘lib, stemlash jarayoni natijasida quyidagi muammolar yuzaga kelishi mumkin:

o‘zak va qo‘shimchaning bitta o‘zak bilan omonim bo‘lishi;

so‘zning tovush o‘zgarishiga uchrashi;

neologizm va NER(Named entity recognition)larni stemlash.

O‘zbek tilidagi gaplarda stemdagi noaniqlikni quyidagi 2-rasmda ko‘rish mumkin:



2-rasm. O‘zbek tilidagi gaplarda stemdagi noaniqlik

[38] Bakayev I. Development of a stemming algorithm based on a linguistic approach for words of the uzbek language // International Conference on Scientific, Educational & Humanitarian Advancements. Bukhara, 2021. – P. 195-202.

[39] Sharipov M., Sobirov O. Development of a Rule-Based Lemmatization Algorithm Through Finite State Machine for Uzbek Language // The International Conference and Workshop on Agglutinative Language Technologies as a challenge of Natural Language Processing. Koper, Slovenia, 2022. – P.1-6.

Stemni aniqlashdagi tovush o‘zgarishiga uchrashi muammosini hal qilish uchun birinchi bosqichda o‘zak va qo‘shimchalarning chegaralari aniqlanadi, ikkinchi bosqichda esa lemmalash amalga oshiriladi. Lemmalash natijasida xato hosil qilingan stemlar lug‘atda mavjud root (o‘zak)ga o‘zgartiriladi. NER va neologizmlarning stemini topish muammosi yuzaga kelganda shakl yasovchilar kesiladi, so‘z yasovchi shaklidagi qo‘shimcha yoki so‘zning qismi qoldiriladi va ushbu qism stemga teng keladi.

Bobning ikkinchi paragrafi *“O‘zbek tilida turli tuzilishli so‘zlarni lemmalash usullari”* deb ataladi. Lemmalash – so‘zning turli xil flektiv shakllarini bitta element sifatida tahlil qilish uchun guruhlash jarayoni. U so‘zning normallashgan shaklini yoki lemma deb ataladigan so‘zning lug‘at shaklini aniqlashda ishlatiladi. Leksema bir xil ma’noga ega bo‘lgan barcha shakllarning (lug‘at bosh so‘zlari deyiladi) birlashmasi bo‘lsa, lemma leksemani ifodalovchi tayanch shakl sifatida tanlangan so‘zdir. O‘zbek tilida so‘z tarkibining odatiy strukturasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

“O‘zak + so‘z yasovchi + lug‘aviy shakl + sintaktik shakl”.

Quyida lemmalash jarayoni ko‘rsatiladi[40]:



3-rasm. Lemmatizatsiya jarayoni

O‘zbek tilida stemlash va lemmalash natijasi bir xildek ko‘rinadi, ammo ular batamom farqli jarayonlar sanaladi: stemlash o‘zakdan qo‘shimchani kesish, lemmalash esa o‘zakning lug‘atdagi variantini aniqlash jarayonidir (4-rasm).

[40] http://uznatcorpara.uz/uz/Lemmatizer



4-rasm. Stemlash va lemmalash o'rtasidagi farq

Sodda tub va sodda yasama so'zlar. Sodda tub va sodda yasama so'zlar odatda bitta lemmaga teng. Ularni lemmalash uchun sintaktik va lug'aviy shakl yasovchi qo'shimchalarni kesib tashlash kifoya.

Qo'shma so'zlar. Qo'shma so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. Qo'shib yoziladigan qo'shma so'zlar lemmasi shakl yasovchi qo'shimchalarni *kesib tashlash orqali hal qilinadi.*
2. Ajratib yoziladigan qo'shma so'zlarni lemmalashda *lug'atga asoslaniladi.*
3. Tarkibli atoqli otlar ajratib yoziladi va NER hisoblanadi: *Yangi O'zbekiston, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti, Milliy tiklanish partiyasi.* Bunday birliklarni lemmalash alohida lingvistik va matematik modellarni talab qiladi.

Qo'shma fe'l bilan shaklan o'xshash birliklar mavjud, masalan, iboralar. Iboralar tarkibiga ko'ra quyidagi tuzilishga ega:

1) $W_1 + W_2$
2) $W_1 + W_2 + W_3$
3) $W_1 + W_2 + W_3 + W_4$

Bular orasidan $W_1 + W_2$ tarkibli iboralar qo'shma fe'l tuzilishiga o'xshab ketadi. Ot+fe'l shaklidagi iboralar (*yaxshi ko'rmoq, ko'zda tutmoq, quloq solmoq, jon bermoq, ko'zini uzmoq*) bitta lemmaga teng, ammo ular lemma emas, frazeologik birlik sifatida teglanadi.

Juft so'zlar. Juft so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. **Ikkala qismi ma'no beruvchi:** *achchiq-chuchuk.* Bunday holda stem 2 ta, lemmasi bitta bo'lib, bunda ham lug'atga asoslaniladi.
2. **Biri ma'no beruvchi, biri ma'no bermaydigan:** *kalta-kul*ta, bunday holda stem faqat ma'no beruvchi qism, lemmasi bitta bo'lib, bunda ham lug'atga asoslaniladi.

3. **Ikkala qismi ham ma'no bermaydigan:** *g'idi-bidi, jiz-biz.* Juft so'zlarning ikkita qismi ham ma'noga ega bo'lmasa, shu juft so'zning o'zi stem, o'zak va lemma bo'ladi.

Takror so'zlar. Takror so'zlarning lemmasini aniqlashda quyidagi qoidalarga rioya qilinadi:

1. **Aynan takror:** *katta-katta, tez-tez, baland-baland.*
2. **Ikkinchi qismi birinchi qismining fonetik o'zgarishga uchragani:** *tuz-puz, non-pon.*

Takror so'zlarni lemmalashda ham lug'at ma'lumotiga asoslaniladi. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, lemmalashda lug'at ma'lumoti – lingvistik ma'lumotlar bazasi muhim. Faqat stemni aniqlashda shakl yasovchi (sintaktik va lug'aviy)lar kesiladi. Takror so'zdan biri alohida kelganda POS tegi boshqa turkum, takror kelganda POS tegi boshqa turkumga mansub bo'ladi: *dedi* yakka holda qo'llanganda fe'l, *dedi-dedi* shaklida takror so'z bo'lib kelganda ot turkumiga mansub bo'ladi. Lekin bu tipik holat emas: *tez* ravish, *tez-tez* ravish; *katta* sifat, *katta-katta* sifat.

Bobning uchinchi paragrafi "*Til korpusi qidiruv tizimini optimallashtirishda lemmalashning ahamiyati*" deb nomlanadi. Bugungi kunda NLP algoritmlaridan *elektron pochtada spamni aniqlash* va *qidiruv tizimlarida foydalanuvchi so'rovlarini optimallashtirish* kabi masalalarni hal qilishda foydalanilmoqda. NLP – mashinalarga insonlar bilan *tabiiy tilda muloqot qilishda, matnni intellektual tahlil qilish, nutqni tushunish* va *uni to'g'ri formatda talqin qilish* kabi vazifalarni bajarishda yordam beradi[41]. Tizimlashtirilmagan ma'lumotlarni NLP vositalari orqali qayta ishlash murakkab va dolzarb amal bo'lib, NLP usullari vositasida matndan kerakli ma'lumotlarni yetarli aniqlikda olish nihoyatda ahamiyatli.

Lemmalash jarayoni qidiruv tizimini optimallashtirish (Search Engine Optimization, SEO)da muhim ahamiyatga ega bo'lib, lemmalashni amalga oshirish bosqichlari, metod va algoritmlarining qanday ishlashini, uni korpus matnlariga qo'llash usullarini ishlab chiqish lozim. Korpus matnlari (veb-sayt)dagi *kalit so'zlarni o'rganish, sahifani optimallashtirish* va *qidiruv reytinglariga ta'sir ko'rsatadigan boshqa omillarga e'tibor qaratish* ham muhim. Lemmalash eng yaxshi natijalarga erishish uchun keng qamrovli SEO strategiyasining bir qismi sifatida ishlatilishi kerak. Korpus matnlarini qo'lda lemmalash ko'proq vaqt talab qilsa-da, aniqroq natijalarni beradi. 5-rasmda korpus matnlarini razmetkalash bosqichlari keltirilgan.

Veb-saytda lemmalashni amalga oshirish. Matn tasnifi, ma'lumotlarni qidirish va *mashina tarjimasi* kabi vazifalarini hal qilishda lemmalash yordam beradi. Veb-saytda lemmalashni amalga oshirish uchun turli yondashuvlar mavjud.

1. *Oldindan o'qitilgan lemmatizatsiya modelidan foydalanish.*
2. *Maxsus lemmatizatsiya modelini ishlab chiqish.*
3. *Onlayn lemmatizatsiya xizmatidan foydalanish.*

[41] Elov B.B., Hamroyeva Sh.M., Xusainova Z.Y. NLP (tabiiy tilga ishlov berish)ning vazifalari va zamonaviy yondashuvlar / Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. Termiz, 2022, – №5. – B. 19-26.



5-rasm. Korpus matnlarini razmetkalash bosqichlari

Tanlangan yondashuvdan qat'i nazar, veb-saytda lemmatizatsiyani amalga oshirish uchun bir necha qadamlarni bajarish kerak:

boshlang'ich ishlov berish;
tokenlash;
POS teglash;
lemmalash;
integratsiya.

Umuman olganda, lemmalash veb-saytning SEO faoliyatini o'stirishda zaruriy vosita hisoblanadi. *Tegishli kalit so'zlarni aniqlash, mavjud kontentni tahlil qilish, lemmalashni amalga oshirish, samaradorlikni kuzatish, natijalarni taqqoslash* veb-saytning SEOda lemmalash samaradorligini samarali sinab ko'rish va qidiruv tizimlari uchun kontentni qanday optimallashtirish haqida to'g'ri qaror qabul qilishga olib keladi.

Dissertatsiyaning **III bobi "O'zbek tili leksik birliklarini tokenlash, stemlash va lemmalashning dasturiy asoslari"** deb atalgan. Mazkur bobning birinchi paragrafida *"O'zbek tili birliklarini BoW va BPE algoritmlari asosida tokenlash"* masalasi ko'rib chiqiladi. BoW (so'zlar sumkasi) modeli – mashinali o'rganish algoritmlari tomonidan qayta ishlash lozim bo'lgan matnning raqamli ko'rinishi. Bag of Words (BoW) modellashtirish algoritmidan foydalanib, matnni raqamli matritsalarga aylantirish va qayta ishlash mumkin.

BoW algoritmi yordamida matnli ma'lumotlardan zarur *xususiyatlar ajratib olinadi*. Ushbu yondashuv hujjatlardan ma'lum xususiyatlarni ajratib olishning *oddiy va moslashuvchan* usulidir. BoW usulida faqat matndagi so'zlar soni (statistikasi) aniqlanadi. Biroq grammatik tafsilotlar va so'z tartibi e'tiborsiz qoldiriladi. Lug'at hajmi – BoW modeli oldida turgan katta muammo. Agar model hali ishlatilmagan yangi so'zga duch kelsa, BoW modelida bu so'z inobatga olinmaydi.

Byte Pair Encoding (BPE) – transformerga asoslangan modellar (*transformer-based models*) orasida keng qo'llaniladigan tokenlash usuli. BPE so'zlar va belgilar tokenizatorlari muammolarini hal qiladi[42]:

[42] Bostrom K., Durrett G. Byte pair encoding is suboptimal for language model pretraining // Findings of the Association for Computational Linguistics: EMNLP. Austin, 2020. – P. 4617-4624.; Heinzerling B., Strube M.

1. BPE OOV muammosini samarali hal qiladi. U OOVni so'z tarkibi elementlari sifatida ajratadi va qayta ishlaydi.
2. BPEdan keyin kirish va chiqish gaplarining uzunligi belgilarni tokenlashga nisbatan qisqaroq.

BPE – so'zlarni segmentlash algoritmi bo'lib, u eng ko'p uchraydigan belgilar yoki belgilar ketma-ketligini iterativ tarzda birlashtiradi. BPE algoritmini amalga oshirish qadamlari:

1. Korpusdagi so'zlarni </w> qo'shimchasidan keyin belgilarga ajratish.
2. Korpusdagi noyob so'zlar bilan lug'atni shakllantirish.
3. Korpusdagi bir juft belgilar yoki belgilar ketma-ketligi chastotasini hisoblash.
4. Korpusdagi eng ko'p uchraydigan juftlikni birlashtirish.
5. Eng yaxshi juftlikni lug'atga saqlash.
6. Muayyan miqdordagi iteratsiya uchun 3-5-bosqichlarni takrorlash.

Korpusni samarali tarzda qayta ishlash uchun BPEning har bir iteratsiyasida uning chastotasiga qarab birlashishning har qanday potentsial variantidan o'tadi va eng yaxshi yechimni optimallashtirish uchun o'ziga xos yondashuvga amal qiladi. Yuqorida keltirilgan usullar o'zbek tili korpusi(matnlar)ga qo'llanildi va https://uznatcorpara.uz/uz/Tokenizer dasturiy ta'minoti ishlab chiqildi.

